

**VITAMIN K ORTIB KETISHI NATIJASIDA TROMBOZNING
KELIB CHIQISHI VA UNI DAVOLASH**

Allayarova Gulnoza Zayniddin qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Pediatriya fakulteti 305-guruh talabasi.

Ilashova Farida Abdinabi qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pediatriya fakulteti 305-guruh talabasi

Jizboyeva Rayxona Nizomiddin qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pediatriya fakulteti 305-guruh talabasi

rahbar: Uzoqova Oyjamol Narzullayevna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti gematologiya kafedrası o'qituvchisi

Kalit so'zlar: Vitaminlar, K vitamini, Tromboz.

Ishning maqsadi: Vitaminlarning tibbiyotdagi ahamiyati, K vitamini qo'llanilishini o'rganish. Trombozning kelib chiqishi sabablari va uni davolash. *Dolzarbligi:* Vitaminlar kishi hayotida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Har qanday mahsulotni meyorida qabul qilish kerak bo'lganidek, vitaminlarni ortiqcha qabul qilish zararlidir. Bunda turli xil o'zgarishlar kelib chiqishi mumkin. Biroq hozirgi kunda vitamin ortiqchaligidan ko'ra uning yetishmasligi ko'p kuzatiladi. Bunday hollarda organizmga qo'shimcha tarzda vitamin kiritilishi lozim. Vitamin *sanoati* – tibbiyot sanoati tarmog'i bo'lib, sintetik vitaminlar, ularning preparatlari hamda o'simliklar va hayvonlardan olingan xom ashyodan vitaminli preparatlar ishlab chiqaradi. Dastlab tabiiy mahsulotlardan vitaminli preparatlar olingan. Keyinchalik esa sintetik usulda olinib boshlagan. O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab vitaminlar sun'iy ravishda ishlab chiqarila boshlagan. Bu usul tabiiy mahsulotlardan vitamin olishga qaraganda ancha murakkab bo'lishiga qaramay sof

holda vitamin olish imkoniyatini beradi. Sof holdagi vitaminlarni davolashda qo'llash ancha samaraliroq hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda- AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shveysariya kabi davlatlarda vitamin sanoati yaxshi rivojlangan. O'zbekistonda Toshkent kimyo-farmatsevtika zavodida 6turdagi vitaminlar, "Surxon Ajanta" qo'shma korxonasida V guruhi vitaminlari ishlab chiqariladi.

Muammo: K vitaminining organizmda miqdori o'zgarishi turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Masalan vitaminning ortib ketishi gipervitaminoz deb ataladi, uning simptomlari: anemiya, suyak va bosh og'rig'i, terida toshmalar, qichishish, qon bosimining oshishi, tromboz, taloq va jigar hajmining ortishi, o't pufagida tosh paydo bo'lishiga olib keladi. Bu vitaminning yetishmasligi juda kam uchraydi va avitaminoz deyiladi. Bunday holatda qon suyuqlashib organlar (oshqozon, ichak burun teri osti va intradermal) sohalaridan qon ketishi, yengil shikastlanishda ham kuchli qon ketishi, ko'karishlar kuzatiladi. **Tromboz**- bu organizmning turli sohalaridagi vena qon tomirlarida qonning qotib qolishi ya'ni lahta hosil bo'lishidir. Ko'pincha tromp son, boldir yoki chanoq sohalarida paydo bo'ladi. Tromp natijasida qon oqimi qisman yoki to'liq buzilishi mumkin. Agar tromp joyidan ko'chsa qon oqimi bilan borib boshqa a'zolarga tiqilib qolishi mumkin, bunday holat inson hayotiga xavf tug'diradi. Shu sababli tromboz holatini zudlik bilan bartaraf etish lozim.

Maqsad: Trombozni davolash uchun uni turli xil tekshirish usullaridan foydalaniladi: qon analizlari, MRT, flebografiya kabilar. Trompning harakatchan yoki harakatsiz ekanligini ham aniqlash lozim. Trombozda shifokor qonni suyultiruvchi preparatlar buyurishi mumkin. Bundan tashqari oyoqlarda bosimni kamaytirish uchun maxsus bog'lamalardan foydalaniladi. Agarda quyidagilar foyda bermasa operatsiya qilish usuli bilan qon tomirdagi tromp olib tashlanadi. **Xulosa:** K vitaminisiz mustahkam immunitetga ega bo'lish qiyin: ushbu modda teri va suyaklarni mustahkamlaydi, buyraklarni himoya qiladi va qon aylanishiga yordam beradi. Lekin tarkibida K vitamini ko'p bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilishda ehtiyot bo'lish lozim, masalan, mol jigari, karam ko'k piyoz, brokkoli va

boshqalar. To'g'ri ovqatlanish ratsioniga amal qilish lozim -ko'proq mevalar, ko'katlar va sabzavotlar iste'mol qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://oz-sputniknews-uz.>

<https://uz.m.wikipedia.orginal.>

<https://zamin.uz>

<https://daryo.uz.>